



IJTIMOIY SOHADAGI DESTRUKTIV JARAYONLARNING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Bekmurodova G.X.

Qarshi davlat universiteti professori

Annotatsiya: maqolada jamiyatning ijtimoiy sohasidagi konstruktiv va destruktiv jarayonlarning mazmuni, xarakteri va namoyon bo'lish shakllari haqida fikr yuritilgan. Ijtimoiy sohadagi destruktiv jarayonlar-milliylikning yo'qolib borishi, ijtimoiy tengsizlik, oila inqirozi, yolg'izlik, demografik disbalans, va mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari ijtimoiy falsafa kontekstida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy soha, konstruktiv jarayonlar, destruktiv jarayonlar, unifikatsiya, ijtimoiy tengsizlik, oila instituti inqirozi, yolg'izlik, demografik disbalans, mehnat migratsiyasi;

Аннотация: в статье рассматриваются содержание и формы проявления конструктивных и деструктивных процессов в социальной сфере общества. В контексте социальной философии анализируются деструктивные процессы в социальной сфере - социальное неравенство, кризис семьи, одиночество, демографический дисбаланс, а также социальные последствия трудовой миграции.

Ключевые слова: социальная сфера, конструктивные процессы, деструктивные процессы, унификация, социальное неравенство, кризис семьи, одиночество, демографический дисбаланс, трудовая миграция;

Annotation: the article examines the content and forms of manifestation of constructive and destructive processes in the social sphere of society. In the context of social philosophy, destructive processes in the social sphere are analyzed - social inequality, family crisis, loneliness, demographic imbalance, as well as the social consequences of labor migration.

Key words: social sphere, constructive processes, destructive processes, unification, social inequality, family crisis, loneliness, demographic imbalance, labor migration;

Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy sohalarida sodir bo'lgan o'zgarishlar pirovardida uning ijtimoiy sohasiga ham ta'sir ko'rsatishini asoslab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Shu boisdan o'tgan asrning ikkinchi yarmi va yangi asrning birinchi choragidagi iqtisodiy va siyosiy konstruktiv jarayonlar ijtimoiy sohadagi progressiv o'zgarishlarga turtki berganini, destruktiv jarayonlar esa kishilik jamiyati turmushida qator salbiy va regressiv tendensiyalarni vujudga keltirganini tasodifiylik bilan emas, zaruriylik bilan bog'liq holat sifatida tavsiflash mumkin.

Ijtimoiy soha deganda kishilar, ular mansub bo'lgan guruh va sinflar kabi ijtimoiy birliklar, millat va elat kabi etnik birliklar, oila kabi ijtimoiy institutlar hamda ular o'rtasidagi tarixan shakllangan munosabatlar yig'indisi, bu munosabatlarni ta'minlovchi va belgilovchi turli tashkilot va muassasalar majmui nazarda tutilishini aytib o'tdik. O'tgan asrning ikkinchi yarmida va yangi asrning boshlarida kishilik jamiyatining ijtimoiy sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, tarixiy nuqtai



nazardan fikrlaganda, birinchidan, turli millat va elat vakillarining turmushi darajasi birmuncha yaxshilandi; ikkinchidan, ularning jamiyat taqdim etadigan ne'matlar va xizmatlardan foydalanishi imkoniyatlari kengaydi; uchinchidan, jamiyat a'zolari, turli guruhlar, sinflar o'rtasidagi munosabatlar sezilarli ravishda insonparvarlashdi; to'rtinchidan, ijtimoiy munosabatlar xarakterini belgilovchi institutlar salohiyati ancha yuksaldi. Zamonaviy sotsium barcha ijtimoiy parametrlar bo'yicha atigi bir asr avvalgi jamiyatdan batamom farqlanadi. Shu boisdan yuqorida tilga olingan va ularga o'xshagan ko'plab muvaffaqiyatlarni ijtimoiy sohaga doir konstruktiv jarayonlar sifatida baholamoq darkor.

Biroq ijtimoiy sohada konstruktiv jarayonlarga muqobil ravishda turkum destruktiv jarayonlar paydo bo'layotgani ham rost. Bu jarayonlar ichida globalashuv sharoitida turli millatlarda milliylikning yo'qolib borayotgani alohida o'rin tutadi. "Milliylik – muayyan xalqqa, millatga xos bo'lgan, uning boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Unda o'z millatini ulug'lash va uning manfaatini himoya qilish, milliy g'urur va milliy nafsoniyat tuyg'ulari, o'z tili, adabiyoti, madaniyati va san'ati, dini, tarixi va urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, o'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tuyg'usi namoyon bo'ladi."³⁰ Albatta, milliylik o'zga millatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy aloqalar evaziga boyib boradi. Bu aloqalar davomida bir millat o'zga millatga xos bo'lgan tajriba, bilim va g'oyalarni o'zlashtiradi, ular asosida o'z milliy xususiyatlarini takomillashtiradi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab avj olgan globallasuv tendensiyasi, bir tomondan, turli millat va elat vakillari orasidagi munosabat va aloqalarni nihoyatda intensivlashtirdi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, globallasuv millatlarning o'ziga xos jihatlari takomillashuviga zamin yaratdi. Bu, albatta, ijobiy holat. Lekin, ikkinchi tomondan, aynan globallasuv natijasida turli millat va elatlar vakillarining turmush tarzi, tili, adabiyoti, san'ati, an'analari, qadriyatlari, ta'lim va tarbiya tizimida unifikatsiya jarayonlari sodir bo'la boshladi. Masalan, bunday

³⁰ Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.1.- T.:O'zb.fayl. milliy jam. nashr., 2019.- B.809.



jarayonlarni avvalo turmush tarzida ko‘rish mumkin. Fan va texnika yutuqlari umumbashariy xarakter kasb etgani, bu yutuqlarning jahon bo‘ylab yoyilishi yengillashgani, kashfiyot va ixtirolarning inson turmushiga kirib borishi umumsayyoraviy tus olgani sayin turli millat vakillari turmushidagi tafovutlar kamayib, o‘xshashliklar esa ortib bormoqda. To‘g‘ri, jahon mamlakatlaridagi kishilar turlicha shaklda bunyod etilgan binolarda istiqomat qiladilar, biroq ularning kundalik turmushda qo‘llaydigan texnika vositalari, iste‘mol qiladigan mahsulotlari, foydalanadigan xizmatlari, hatto hayotiy ehtiyoj va manfaatlari tobora unifikatsiyalashmoqda.

Unifikatsiyalashuv jarayonlari milliy til, adabiyot va san’atda ham ko‘zga tashlanayapti. Xususan, butun jahon bo‘ylab ijtimoiy jarayonlarni, tendensiyalarni, fenomenlarni milliy tillarda emas, ingliz tilida ifodalash urf bo‘lmoqda. Masalan, barcha tillarda ijtimoiy hayotning turli sohalariga yangiliklar joriy etilishi jarayonini ifodalashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, bu jarayonga nisbatan “innovatsiya” so‘zini ishlatish odat tusini olgan. Vaqt o‘tishi bilan barcha milliy tillarda bunday so‘zlarning ulushi ortib ketayapti. Zamonaviy adabiyot va san’atga keladigan bo‘lsak, unda elitar adabiyot va san’at g‘oyalari hamda syujetlarini ommaviy adabiyot va san’at mavzulari bilan sintez qilish, uyg‘unlashtirish jarayoni tendensiyaviy tus olmoqda. Keyingi yillarda jahonda ta‘lim va tarbiya tizimining unifikatsiyalashuvi ham jadallashdi. Jumladan, dastlab AQSH, Buyuk Britaniya va Kanadada individual mashg‘ulotlarni tashkil qilish uslubi sifatida joriy qilingan kredit-modul sistemasi yangi asrga kelib barcha mamlakatlarning ta‘lim tizimiga tatbiq etila boshlandi.³¹

Globalashuv natijasida turli millat va elatlar vakillarining turmush tarzi, tili, adabiyoti, san’ati, an’analari, qadriyatlarini, ta‘lim va tarbiya tizimida yuz berayotgan unifikatsiya jarayonlari milliylik elementlarining kamayishiga olib kelmoqda. Xususan, turmush tarzidagi milliy normalar yemirilmoqda, milliy tildagi milliy ruhiyat zaiflashmoqda, adabiyot va san’atdagi milliy janrlarga putur yetmoqda, milliy

³¹ Qarang: Шакадирова Н.И. Практическое значение использования кредитно-модульной системы в высшем образовании.// Academic research in educational sciences, 2020, №3.- 688-с.



ta'lim va tarbiya pozitsiyalari susaymoqda. Mazkur destruksiya insoniyatning asosiy atributlaridan biri etnik turli-tumanligining yo'qolib ketishi xavfini tug'dirmoqda.

Milliylikning yo'qolib borayotgani ijtimoiy sohada sodir bo'layotgan yagona destruktiv jarayon emas, albatta. Shuning bilan bir qatorda zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kuchayib borayotgani destruktiv rol o'ynamoqda. Sirasini aytganda, kishilik jamiyati taraqqiyotining biror bir bosqichida tabaqalar o'rtasida ijtimoiy tenglik hukm surgani yo'q. Barcha davrlarda jamiyat a'zolarining bir guruhi mavjud ijtimoiy ne'matlardan maqbulroq foydalanish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa, boshqa guruh bu borada cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot mobaynida turli mamlakatlarda yuzaga kelib turgan ixtilof, kelishmovchilik, inqilob, qo'zg'olonlarning tub sabablaridan biri ham ana shu tengsizlikka borib taqaladi. Shu boisdan mutafakkirlar ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni saqlash uchun ijtimoiy tenglikni ta'minlash yoki loaqal tengsizlikning shiddatli tus olishiga yo'l qo'ymaslik zarurligini mudom ta'kidlab kelganlar. Bu ta'kidlarga bir qadar quloq tutilgan davrlarda imkoniyatlari cheklangan jamiyat a'zolariga yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilgan. Masalan, bundan qariyb besh ming yil muqaddam Misrda muayyan nufuz va e'tiborga ega bo'lgan olim Imxotepa tashabbusi bilan imkoniyati cheklangan oilalarga, ularda tarbiyalanayotgan bolalarga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida "Hayot uylari" tashkil etilgan.³² Asta-sekinlik bilan turli mamlakatlarda jamiyatdagi tabaqalararo tengsizlikni bir qadar tiyib turishga xizmat qiladigan ijtimoiy ta'minot tizimlari shakllantirildi hamda tatbiq etildi.

Biroq, shunga qaramasdan, ijtimoiy tengsizlik muammosi nafaqat bartaraf etilmadi, balki XXI arafasiga kelib ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid solayotgan hamda taraqqiyot sur'atlarini sezilarli ravishda sekinlashtirayotgan destruktiv omilga aylandi. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda jahon aholisining 1 foizi qolgan 99 foizidan ko'proq mulk va daromadga ega.³³

Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi oila instituti inqiroziga yo'l ochdi. Buning turkum sabablari mavjud. Ma'lumki, "oila qurishning ilk motivi insonning iyerarxik,

³² Qarang: Сафронов А. Как боролись с бедностью в древности и почему сегодня трудно придумать что-то новое.// getsiz.ru, 2018, 19 июля.

³³ Qarang: Юрченко М.А. Социальное неравенство: богатые стали богаче, бедные беднее.// Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, 2017, №5.- 132-с.



jinsiy va o‘z-o‘zini asrash instinktlariga asoslangan shaxsiy ehtiyojlari bilan bog‘liq’.³⁴ Boshqacha aytadigan bo‘lsak, inson muayyan ehtiyojlarini qondirish uchungina oila quradi. Shuningdek, inson o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini yaratayotgani uchungina oilani qadrlaydi, uni himoya qiladi, oila a‘zolari hayoti va faoliyati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ehtiyojlar tizimidagi har qanday yangilanish, evrilish uning oilaga munosabatini ham tubdan o‘zgartiradi. Oila nafaqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan institut, balki uning a‘zolari oldidagi mas’uliyat ham demakdir. Mas’uliyat esa oila a‘zolarining munosib turmushini ta’minlash, ko‘plab maishiy mummolarni hal qilish, farzandlarni voyaga yetkazish, ularning kelajagi uchun muayyan investitsiyalar qilishni taqozo etadi. Kambag‘allik yoki moddiy yetishmovchilik esa mazkur funksiyalarni to‘laqonli qondirishga xalal beradi. Shu boisdan, o‘rtahol kishilar, ayniqsa kambag‘allar orasida ma’lum muddat oila qurishdan o‘zini tiyayotgan kishilar soni ko‘paymoqda. Oqibatda dunyo bo‘ylab nikohlar soni kamaymoqda. Masalan, bugungi kunda Shveysariyada har 1000 kishidan atigi 4,8 tasi, Gretsiyada – 4,7 tasi, Buyuk Britaniyada – 4,4 tasi, Norvegiyada – 4,4 tasi, Bolgariyada – 4 tasi, Belgiya – 3,9 tasi, Niderlandiyada – 3,8 tasi, Ispaniyada – 3,78 tasi, Fransiyada – 3,5 tasi, Italiyada – 3,2 tasi oila qurishga qaror qilmoqda.³⁵

Oila instituti inqirozi bugungi zamona kishisini yolg‘izlik girdobiga uloqtirdi. Zamonaviy jamiyatda oilaning yo‘qligi boyni ham, kambag‘alni ham kommunikativ izolyatsiya girdobiga tashlamoqda. Aynan shu sababga ko‘ra, barcha mamlakatlarda yolg‘iz kishilar soni ko‘payib borayotgani ko‘zga tashlanadi. Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa dolzarblashmoqda. Xususan, AQShda 1970-yillarda fuqarolarning 17 foizi yolg‘izlikda yashagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 25 foizga yetdi. Ular turkumiga nafaqat hayot taqozosi bilan yolg‘iz qolgan kimsalar, balki o‘z ixtiyori bilan izolyatsiyada yashayotgan kishilar ham kiradi.³⁶ Italiyada jamiyat a‘zolarining 27 foizi yolg‘izlikda umr kechirmoqda. Mamlakatning shimoliy mintaqalarida vaziyat ayniqsa tashvishlanarli: bu hududda

³⁴ Вялых Н. А. Институт семьи в системе формирования и воспроизводства социального неравенства.// Вестник НГУЭУ, 2021, №1.- 255-с.

³⁵ Qarang: Статистика браков и разводов в мире.// offshoreview.eu, 2019, 30 августа.

³⁶ Qarang: Топ-5 стран, в которых велика доля одиноких людей.// www.toskinet.ru, 2020, 15 марта.



aholining qariyb yarmi yolg'izlikda yashaydi.³⁷ Yaponiyada fuqarolarning 30 foizi o'z oilasiga ega emas. Mamlakatda yolg'izlik fenomenining turli jihatlarini "xikimori" (muloqotdan voz kechish) va "kodokusi" (yolg'iz o'lim) tushunchalari yordamida ifodalanadi. O'z umrini yolg'izlikda yakunlayotgan qariyalar soni 5 milliondan oshib ketdi.³⁸ Buyuk Britaniyada aholining 35 foizi yolg'izlikda yashaydi. Bugungi kelib, 75 yoshdan oshgan mamlakat fuqarolarining yarmidan ko'pi har qanday muloqotdan benasib qolmoqda. Vaziyat shu qadar jiddiy tus oldiki, hukumat mazkur masalalar shug'ullanadigan maxsus vazirlik tashkil qilishga majbur bo'ldi.³⁹ Shvetsiyada esa yolg'izlik muammosi misli ko'rilmagan miqyosga yetdi: Yevropa statistik tashkilotlari jamlagan ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatda aholining 50 foizi yolg'izlikda yashaydi.⁴⁰

Yolg'izlik jiddiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelmoqda. Uni tizimli ravishda bartaraf etishga yetarli e'tibor berilmagan mamlakatlarda suitsid holatlari ko'paymoqda. Ma'lumki, insonni suitsidga undaydigan omillar ko'p. Mutaxassislar ular turkumiga og'ir onkologik kasalliklarni, moddiy nochorlikni, psixologik muammolarni, jamiyatda o'z o'rnini topish bilan bog'liq qiyinchiliklarni kiritadilar. Yolg'izlik ham ana shunday omillar qatoriga kiradi. Uning tufayli sodir etilgan suitsid ko'rsatkichlarini oladigan bo'lsak, bu borada aynan muammoga tizimli ravishda yondashilmagan mamlakatlar yetakchilik qiladi. Masalan, Yaponiyada 2020 yilda bu ko'rsatkich 21 mingdan oshib ketdi. Vaziyat jiddiyligini inobatga olgan hukumat buyuk Britaniya kabi yolg'izlik bilan maxsus shug'ullanadigan idora tashkil etishga qaror qildi. Bugungi kunda ushbu idora mamlakatdagi yolg'izlarning umummilliy ro'yxatini tuzish va ularga tizimli yordam ko'rsatish choralarini ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqda.⁴¹

Yolg'izlik muammosini tizimli ravishda hal qilishga intilayotgan mamlakatlarda budjetdan ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag' miqdori barqaror o'sib bormoqda

³⁷ Qarang: o'sha yerda.

³⁸ Qarang: o'sha yerda.

³⁹ Qarang: o'sha yerda.

⁴⁰ Qarang: Топ-5 стран, в которых велика доля одиноких людей.// www.toskinet.ru, 2020, 15 марта.

⁴¹ Qarang: В Японии планируют создать ведомство по проблемам одиночества.// bigasia.ru, 2021, 16 февраля.



Oila instituti inqirozining chuqurlashishi, yolg'izlikning umumbashariy muammoga aylanishi yana bir destruktiv jarayon – umumjahon demografik disbalansiga yo'l ochib berdi.

Demografik disbalans jiddiy oqibatlarga olib kelayapti. U, avvalo, jahon hamjamiyatining bir maromda, barqaror rivojiga to'sqinlik qilayapti. Demografik vaziyatdagi muvozanatning buzilishi mintaqalar turmush darajasidagi tafovutni kengaytirib yuborayapti. Bundan tashqari demografik vaziyatdagi muvozanatning buzilishi ish o'rinlarida nomutanosiblikni vujudga keltiryapdi. Bu esa o'z navbatida mehnat migratsiyasi bilan bog'liq muammolarni shakllantiryapdi.

Jamiyatda migrantlar ulushining ortishi bu mamlakatlarda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlarga, xususan davlat budjeti xarajatlarining oshishiga, iqtisodiy munosbatlar transformatsiyasiga, marginal kishilarning ko'payishiga, jinoyatchilik darajasining o'sishiga, madaniyatlar to'qnashuviga olib kelmoqda. Shunga asoslanib, mehnat migratsiyasini ham qisman zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-destruktiv jarayonlar turkumiga kiritish mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XXI asrda jahon mamlakatlarida ijtimoiy sohada qator konstruktiv jarayonlar paydo bo'lganiga qaramasdan, turkum destruktiv jarayonlar ham namoyon bo'la boshladi. Ular tarkibiga milliylikning yo'qolib borayotganini, ijtimoiy tengsizlikning kuchayayotganini, oila institutining inqirozga uchrayotganini, yolg'izlikning jiddiy ijtimoiy muammoga aylanayotganini, umumjahon demografik disbalansining chuqurlashayotganini, ish o'rinlarida nomutanosiblik vujudga kelayotganini, mehnat migratsiyasining intensiv tus olayotganini kiritish mumkin. Ushbu ijtimoiy-destruktiv jarayonlar milliy norma va qadriyatlar yemirilishiga, milliy ruhiyatning zaiflashishiga, ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga, turli ijtimoiy illatlarning ildiz otishiga, turli mintaqa vakillarining kundalik ehtiyojlarini qondirish, ta'lim olish va sog'lig'ini tiklashdagi imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutning kengayishiga, mamlakatlar mehnat resurslaridagi balansning buzilishiga sabab bo'lmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.1.- T.:O'zb.fayl. milliy jam. nashr., 2019.- B.809.
2. Бешукова Ф. Б. Концептуализм (соц-арт) в системе отечественной постмодернистской парадигмы.// Известия Волгоградского государственного педагогического университета, 2008, №10.- 146-150-с.
3. Шакадирова Н.И. Практическое значение использования кредитно-модульной системы в высшем образовании.// Academic research in educational sciences, 2020, №3.- 688-с.
4. Сафронов А. Как боролись с бедностью в древности и почему сегодня трудно придумать что-то новое.// getsiz. ru, 2018, 19 июля.
5. Юрченко М.А. Социальное неравенство: богатые стали богаче, бедные беднее.// Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, 2017, №5.- 132-с.
6. Вялых Н. А. Институт семьи в системе формирования и воспроизводства социального неравенства.// Вестник НГУЭУ, 2021, №1.- 255-с.
7. Статистика браков и разводов в мире.// offshoreview.eu, 2019, 30 августа.
8. Топ-5 стран, в которых велика доля одиноких людей.// www.toskinet.ru, 2020, 15 марта.
9. Статистика самоубийств по странам.// openbase.online, 2020, 16 октября.
10. В Японии планируют создать ведомство по проблемам одиночества.//bigasia.ru, 2021, 16 февраля.
11. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 210-215.
12. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных



наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.

13. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРҒИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).

14. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.

15. Рўзибоев, Дилшод Аъзам Ўғли ХХ АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).

16. Ruziboev Dilshod A’Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).

17. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.

18. Jalilov B. N. SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 276-282.

19. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).

20. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИ ВА ФАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).